



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

HOMILADORLIKDA QANDLI DIABET KELIB CHIQISH SABABLARI VA ONALIKNING KECHISHI

Isroilova Mufassalxon Shavkatjon qizi

2-son Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
Hamshiralik ishi kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya:

Qandli diabet — asosiy energiya manbayi bo'lgan glyukozaning hujayralarga kirmasligi bilan kechadigan kasallik bo'lib, organizmda metabolik jarayonlar noto'g'ri ishlay boshlaydi. Natijada insulin darajasi pasayadi va qonda shakar miqdori oshadi.

Kalit so'zlar: diabet, insulin, me'da osti bezi, langergans orolchasi, glyukoza, geztoz, autoimmun kasallik, pankreatit

Qandli diabet kelib chiqish sabablari

1. Irsiyat

Agar ota-onal I yoki II turdag'i diabetga chalingan bo'lsa, ularning farzandida ham kasallikning rivojlanish xavfi boshqa bolalarga nisbatan yuqori bo'ladi.

2. Ortiqcha vazn

Og'ir vaznli insonlar II turdag'i diabetga chalinishga ko'proq moyil bo'ladi. Ularda adipotsitlar organizmga kerak bo'lgandan ko'ra ko'proq yog' kislotalari ishlab chiqaradi. Bunday kislotalarning bir qismi jigarga kirib, jigar hujayralarining insulin bilan bog'lanishiga to'sqinlik qiladi, qolgan qismi esa mushaklarga ta'sir qiladi. Shu sababli glyukozaning hujayralarda so'riliishi kamayib boradi va qandning qondagi miqdori oshadi.

3. Oshqozon osti bezi kasalliklari

I toifa qandli diabet oshqozon osti bezi kasalliklarida, insulinni sintez qiluvchi beta hujayralari shikastlanganda rivojlanadi va pankreatit, kistalar, saraton kabi kasalliklarda yuzaga chiqadi.

Diabetning birinchi turi ba'zan gemoxromatoz — irsiy kasallik tufayli yuzaga keladi. Bu tanadagi temir almashinuvi buzilishi bo'lib, ushbu modda oshqozon osti



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

bezi va boshqa organlarda ortiqcha to‘planib boradi. Shuningdek, oshqozon osti bezini kesish jarrohligi — pankreatotomiya ham I turdagи diabetga sabab bo‘ladi.

4. Homiladorlikda gormonal o‘zgarishlar

Foto: Healthshots

Sog‘lom va hech qanday patologiyasiz kechayotgan homiladorlik davrida ham hujayralarning insulinga ta’sirchanligi ikki barobar pasayadi. Statistikaga ko‘ra, 1 foizdan 20 foizgacha homilador ayollar qandli diabetga chalinishga moyildir.

5. Viruslar

So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, Koksa virusi, qizilcha, Epshteyn-barr yoki retroviruslar ham I turdagи diabetga olib kelishi mumkin. Ular oshqozon osti bezi hujayralarini zararlaydi va limfotsitlarning ba’zi guruhlarini qo‘zg‘atib yuboradi. Qandli diabetga chalinmaslik uchun profilaktik tavsiyalar:

- yog‘li va shirin taomlar iste’molini kamaytirish;
- meva, sabzavotlar, dukkakli o‘simliklarni ko‘proq iste’mol qilish;
- jismoniy faol bo‘lish;
- vaznning to‘g‘ri indeksini ushlab turish;
- alkogoldan voz kechish.

Organizmda qandli diabet rivojlanganini tekshirish uchun bir yilda bir marotaba qon tahlili topshirish va shifokor ko‘rigidan o‘tish zarur.

Homiladorlikda diabet

Qandli diabetli homilador ayollarda ham bola ham ona uchun bir nechta qiyinchiliklar mavjud. Agar homilador ayolda pregestatsion (avvaldan mavjud bo‘lgan) diabet bo‘lsa, bu bolaning chala tug`ilishiga, tug`ma nuqsonlarga yoki homilaning katta tug`ilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun mutaxassislar homiladorlikni rejalshtirishdan 3 oy avval qondagi shakar miqdorini normallashtirishni maslahat beradi. Homilador bo‘lishni rejalshtirigan ayolda birinchi tip qandli diabet yoki ikkinchi tip qandli diabet avvaldan mavjud bo‘lsa, homilador bo‘lishdan avval qondagi glyukoza miqdorini qat’iy nazorat qilish kerak.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

Fiziologiyasi

Pregestatsion diabet fiziologik mexanizmiga qarab birinchi tip yoki ikkinchi tip sifatida klassifikatsiyalanadi. Birinchi tip bu autoimmun kasalliklar natijasida kelib chiqib, oshqozon osti bezidagi betta hujayralarning funksiyasini buzilishiga olib keladi. Ikkinci tip semizlik bilan bog'liq bo'lib, insulin ishlab chiqarishning yetarli emasligi natijasida rivojlanadi. Homiladorlikda yo'ldosh qonda glyukoza miqdorini oshirib yuboradigan laktogen ishlab chiqaradi. Pregestatsion diabetli homilador onalardagi fiziologik o'zgarishlar qonda glyukozaning xavfli darajada oshishiga olib keladi. Bu o'zgarishlar muhim, chunki qandli diabet asoratlari homilador bo'limgan holatlarga qaraganda homiladorlik paytida og'irroq bo'ladi.

Homila uchun xavf omillari

Pregestatsion diabetning salbiy ta'siri asosan homiladorlikning birinchi trimestrida (gestatsion diabetdan farqli ravishda) qondagi qand va insulin darajasining yuqoriligi bilan bog'liq bo'lib, bu ikkinchi va uchinchi trimestrda homilada og'ir holatlarga olib keladi. Bu davrlar homilaning ko'plab asosiy ichki a'zo va to'qimalari rivojlanadigan davr bo'lganligi sababli, pregestatsion diabet tug'ma nuqsonlarga olib kelishi mumkin. Bularga yurak va markaziy asab tizimining noto'g'ri rivojlanishlari kiradi. Markaziy asab tizimining noto'g'ri rivojlanishi chanoq ageniziysi (chanoq suyagini gipoplaziysi), xoloprosensefaliya (miya zararlanishiga oid) ga olib kelsa, yurakning noto'g'ri rivojlanishi arteriya trunkusning noto'g'ri rivojlanishiga, atrioventrikulyar blokadaga olib keladi. Bu asoratlarni qondagi qand miqdorini qattiq nazorat qilish orqali oldini olish mumkin. Bolalardagi yengil nevrologik va aqliy yetishmovchiliklar, jumladan, DVS simptomlarining kuchayishi, harakatning ma'lum darajada cheklanishi va xotira pasayishi homiladorlikdan oldingi birinchi toifa diabet va gestatsion diabet bilan bog'liq. Pregestatsion diabet, shuningdek, bolada tug'ruqdan keyingi asoratlarga, jumladan, fiziologik bo'limgan sariqligi, gipoglikemiya va makrosomiya (homilaning kattalashib ketishi)ga olib kelishi mumkin. Biroq, homiladorlikdan oldingi diabet xromosoma o'zgarishlari (masalan, Daun sindromi) tufayli paydo bo'ladigan kasalliklar ehtimolini



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

oshirmaydi. Bundan tashqari, homiladorlikning dastlabki bosqichlarida anormal rivojlanish tufayli homila tushish holatlari ham ko‘payadi, qonda glyukoza miqdorini nazorat qilmaslik bola tug‘ilishidan qisqa vaqt o‘tib, uning o‘pkasi respirator kasalliklarga duch kelishiga olib keladi. Agar onaning qonidagi qand miqdori tug‘ruq vaqtiga yaqin yuqori bo‘lsa, gipoglikemiyali bola tug‘iladi, bu esa bolaning o‘zidan qo‘srimcha insulin ishlab chiqarilishiga olib keladi. Bunday bolalarda semirish, 2-toifa qandli diabet va metabolik sindrom kabi holatlar kuzatilishi xavfi yuqori bo‘ladi.

Homiladorlikda diabetni davolash

Homiladorlikda glyukoza miqdori iloji boricha qat’iy nazorat qilinishi kerak. Homiladorlikning birinchi haftasida qondagi qand miqdorini qattiq nazorat qilish, shuningdek, homilaning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan qo‘srimcha glyukoza tufayli insulin bilan kamroq davolash kerak. Qondagi qand miqdorini nazorat qilib turish uchun tez-tez tekshirib turiladi. Homila o‘sishi va vazni ortishi sababli organizm ko‘proq gormonlar ishlab chiqaradi, bu esa insulinga rezistentlik va ko‘proq insulinga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqarishi mumkin. Bu vaqtda qondagi qand miqdori normada bo‘lishi muhim, chunki bola onasining qonidagi yuqori qand miqdorini kamaytirish uchun o‘z insulinini ko‘proq ishlab chiqaradi, bu esa homila makrosomiyasi (katta tug‘ishi)ga olib keladi. Tug‘ruq paytida insulin miqdori kamaytirilishi kerak, yo‘qsa giperglykemiya paydo bo‘lishi mumkin. Chaqaloq tug‘ilgandan so‘ng va keyingi kunlarda yo‘ldoshdan ko‘proq insulin talab qiladigan gormonlar bo‘lmaydi, shuning uchun insulin talabi kamayadi va asta-sekin normal ko‘rsatkichlarga qaytadi.

Qandli diabetni ovqatlanishni to‘g‘ri rejlashtirish, jismoniy faollikni oshirish va insulin bilan davolash orqali samarali davolash mumkin. Homiladorlik davrida qandli diabetni nazorat qilish uchun ba’zi maslahatlar:

- Shirinliklarni kamaytiring, kuniga uch marta kam-kamdan taom iste’mol qiling, ovqatlanish vaqtlarini to‘g‘ri nazorat qiling va meva- sabzavot va to‘liq donli ekinlardan tayyorlangan taomlarni iste’mol qiling.
- Jismoniy harakatlarni oshiring – yurish, suzish va boshqalar.
- Qondagi shakar miqdorini doim tekshirtirib turing.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

- Ertalab uyqudan turganda qondagi qand miqdori 95 mg/dL (5.3 mmol/L), ovqatdan bir soat keyin 140 mg/dL (7.8 mmol/L) va ovqatdan ikki soat keyin 120 mg/dL (6.7 mmol/L) dan past bo‘lishi kerak.
- Har safar qondagi qand miqdorini tekshirayotganda natijalarini tegishli tarzda qayd qilib boring va davolashni baholash va o‘zgartirish uchun shifokoringgizga taqdim eting. Agar qondagi qand miqdori belgilangan miqdordan yuqori bo‘lsa, davolash usullari o‘zgartiriladi.
- Ko‘pchilik homiladorlikda qondagi qand miqdorini kamaytirish uchun qo‘srimcha insulinga muhtoj bo‘lishi mumkin. Insulin chaqaloq uchun zararli emas. Sog‘lijni saqlash milliy instituti endi homilador yoki homiladorlikni rejorashtirayotgan 1-toifa diabet bilan og‘rigan barcha ayollar uchun yopiq siklli insulin tizimlarini variant sifatida tavsiya qiladi.

Ko‘krak suti bilan boqish

Ko‘p hollarda hattoki ona diabet bilan kasallangan bo‘lsa ham ko‘krak suti bilan boqish bola uchun yaxshi bo‘ladi. Misol uchun, agar bola ko‘krak suti bilan boqilgan bo‘lsa, bolada ikkinchi tip qandli diabet rivojlanish xavfi kamroq bo‘ladi. Shuningdek emizish, go‘daklik davrida bolaning normal vaznini saqlashga yordam beradi. Biroq, qandli diabet bilan og‘rigan onalarning ko‘krak suti qandli diabet bo‘lmasligi onalarnikidan farqli tarkibga ega ekanligi aniqlangan, ularning suti tarkibida glyukoza va insulin darajasining oshishi va polito‘yinmagan yog‘ kislotalarining pasayishi kabi holatlar kuzatiladi. Qandli diabet bilan og‘rigan onalarning bolalari uchun ona suti bilan oziqlantirishning afzallikkleri bo‘lsa-da, diabetik ko‘krak sutini iste’mol qilish ham dozaga bog‘liq ravishda bolaning so‘zlashuvni rivojlanishining kechikishiga olib kelishi mumkin. Ba’zi holatlarda, ayol homiladorlik vaqtida qonida qand miqdori juda past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganda, bola tug‘ilgandan keyin unga og‘iz suti berish tavsiya etilmaydi. Diabetli homilador ayollarda uning steril va foydali ekanligiga aniq dalillar yo‘q.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pregnancy if You Have Diabetes | NIDDK“ (en-US). *National Institute of Diabetes and Digestive and Kidney Diseases*. Qaraldi: 2020-yil 29-oktyabr.
2. ↑ Barbour, Linda A.; McCurdy, Carrie E.; Hernandez, Teri L.; Kirwan, John P.; Catalano, Patrick M.; Friedman, Jacob E. (2007-07-01). "Cellular Mechanisms for Insulin Resistance in Normal Pregnancy and Gestational Diabetes" (en). *Diabetes Care* 30 (Supplement 2): S112–S119. doi:10.2337/dc07-s202. ISSN 0149-5992. PMID 17596458.
3. ↑ „Home - Eastern Virginia Medical School (EVMS), Norfolk, Hampton Roads“. www.evms.edu. Qaraldi: 2021-yil 10-sentyabr.
4. ↑ Tinker, Sarah C.; Gilboa, Suzanne M.; Moore, Cynthia A.; Waller, D. Kim; Simeone, Regina M.; Kim, Shin Y.; Jamieson, Denise J.; Botto, Lorenzo D. et al. (February 2020). "Specific birth defects in pregnancies of women with diabetes: National Birth Defects Prevention Study, 1997–2011" (en). *American Journal of Obstetrics and Gynecology* 222 (2): 176.e1–176.e11. doi:10.1016/j.ajog.2019.08.028. PMID 31454511. PMC 7186569.